

# GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARINI AHAMIYATI

Axunboboyev M.M.

Gul DU "Ekologiya va geografiya kafedrası" katta o'qituvchisi

**Annotasiya.** Ushbu maqolada o'rta maktab tizimida hozirgi davrda keng qo'llanish nazarda tutilayotgan metodlardan biri, o'yinli texnologiya haqida gap yuritilgan. Zamonaviy ta'limda, ta'limdagi muammoni yechishda turli metodlar shlatilib kelinmoqdaki, ularni ichida "O'yinli texnologiyani" o'rni alohida o'rin kasb etmoqda. Maqolada "O'yin texnologiyasi" ni qo'llash shartlari, hollatlari, maqsadi, umumiy o'yindan, pedagogic o'yinni farqi, texnologiyani qo'llaganda olinadigan natijalar, dars sifatiga ta'siri haqida ayrim fikrlar bayon etilgan. Bu texnologiyaning ijobiy tamonlaridan: nazariy bilimlarni mustahkamlab, tahlil qilish va bashorat qilishni, hamkorlik qilish va o'zaro yordam berishni mustahkamlaydi. Pedagogik o'yinlar o'quvchilarda o'qituvchni tinglagandan ko'ra, tajribada o'rganish imkonini beradi. Muammoli vaziyatlardan mustaqil chiqish yollarni topishga harakat qilishni, fanga nisbatan o'quvchilarda qiziqish ortinishni ta'minlaydi. Maqolada bir qanch geografik o'yinlar va ularni qo'llash shartlari ham ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'yinli texnologiya, O'yin usullaridan, Muloqot ko'nikmalarini, Muammoli savollar, "Geografik koordinatalar", Maslahatlashuv, Terminologik yugurish, Abrakadabra, Siyosiy axborot, informator, Internet, kashfiyotlar, dars.

## ЗНАЧЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ

Ахунбобоев М.М.

Гюль – старший преподаватель кафедры экологии и географии ДУ.

**Аннотация.** В данной статье рассказывается об игровой технологии, одном из методов, широко используемых в системе средней школы. В современном образовании для решения образовательных задач используются различные методы, среди которых особое место занимает «Игровая технология». В статье описаны условия, обстоятельства, цель использования «Игровой технологии», отличие общей игры от педагогической, результаты, получаемые при использовании технологии, влияние на качество урока. Среди положительных сторон этой технологии: она укрепляет теоретические знания, усиливает анализ и прогнозирование, сотрудничество и взаимопомощь. Педагогические игры позволяют учащимся учиться на практике, а не слушая учителя. Это гарантирует, что студенты попытаются найти выходы из проблемных ситуаций и повысят интерес к науке. Также в статье показаны некоторые географические игры и условия их использования.

**Ключевые слова:** Игровая технология, Игровые методы, Коммуникативные навыки, Проблемные вопросы, «Географические координаты», Консультация, Терминологический пробег, Абракадабра, Политическая информация, информатор, Интернет, открытия, урок.

## THE IMPORTANCE OF GAME TECHNOLOGIES IN GEOGRAPHY LESSONS

Akhunboboyev M.M.

Gul is a senior teacher of "Department of Ecology and Geography" of DU

**Abstract.** This article talks about game technology, one of the methods widely used in the secondary school system. In modern education, various methods are used to solve educational problems, among which "Game technology" has a

special place. The article describes the conditions, circumstances, purpose of using "Game Technology", the difference between the general game and the pedagogical game, the results obtained when using the technology, and the effect on the quality of the lesson. Among the positive aspects of this technology: it strengthens theoretical knowledge, strengthens analysis and prediction, cooperation and mutual assistance. Pedagogical games allow students to learn by doing rather than listening to a teacher. It ensures that students try to find ways out of problematic situations and increase interest in science. The article also shows some geographical games and the terms of their use.

**Key words:** Game technology, Game methods, Communication skills, Problem questions, "Geographic coordinates", Consultation, Terminological run, Abracadabra, Political information, informant, Internet, discoveries, lesson.

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz ta'lim-tarbiya mazalasi hamma zamonlarda dolzarb muammolardan bir bo'lganligini ko'rishmiz mumkin bo'ladi. O'quvchiga berilayotgan ta'lim va tarbiyani qanday qabul qilishlari ustozlarining qo'llayotgan usul va metodlariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Geografiya metodikasida hozirgi kunda turli xil texnologiyalari aritilgan va qo'llanib kelinmoqda.

Hozirgi zamonda o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy usul va metodlarini ajratishmiz mumkin. Bu metodlar mohiyatiga ko'ra faol va sokin turlarga ajratilmoqda. Ularning har biri o'z tarixi va shakllanish mexanizmiga ega. Bularning orasida uzoq yillar davomida sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan, otabobolariz qo'llab kelgan va yuksak pedagogik samara beradiganlari juda ko'p. Kishilar o'zini va atrof-muhitni anglab yetishi jarayonida ta'lim va tarbiya uchun asqotadigan xilma-xil texnologiyalarni qo'llab kelishgan. Bu texnologiyalarning aniq son va sifatini hech kim aniq aytishmiz qiyin bo'lsada, ularni ko'p ekanligini bugungi kunda turli davlatlarning ta'lim tizimlarida amal qilinayotgan turfa pedagogik texnologiyalar misol qilib olsak bo'ladi. Gap ularning qaysi biridan

kim qanday samara bilan foydalanishidir. Katta samara bermaydigan yoki o'zini oqlay olmagan texnologiyalar kun tartibidan tushib qolaveradi va ular insoniyat sivilizatsiyasining tarixiy "sandig'iga" jamlanib boraveradi.

Biz qanday pedagogik texnologiyani qo'llamaylik didaktikaning asosiy va yordamchi tamoyillarida voz kecha olmaymiz. U tamoillarga:

- ma'lumdan noma'lumga;
- oddiydan qiyinga yoki murakkabga;
- aniqdan mavhumroqqa (abstraktga);
- kuzatishdan nazariy umumlashmalarga;
- umumiy yoki odatdagidan xususiyya yoki noodatdagilarni kiritsak qollanilayotgan texnologiyalar bunga roiya qilish shart.

Biz pedagogik texnologiyalarni tavsifi qillar ekanmiz ularni ahamiyatini ochib bershga harakat qilamiz. Geograf o'qituvchilar amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri o'yin texnologiyasidir.

Biz ko'rib chiqmoqmoqch bo'lgan metod o'yin texnologiyasi ham o'zining ayrim xususiyatlari bilan boshqa metodlardan farq qilib turadi.

Geografiya ta'limida didaktik o'yinlar texnologiyasi o'quvchilarni bilim faoliyatini jadallashtirishni asosiy usullaridan biri sifatida ilgari qo'llanib kelinadi. O'quvchilarga geografik o'yinlar orqali bilim berish didaktik o'yinli **daralar** deb ataladi.

O'yin texnologiyalarining geografiya daralarida qo'lashning o'quvchlarni kognitiv (([lotincha](#): *cognitio* „idrok, tasavvur qilish, ishning tahlili“) — xarakter, tarbiya, tarbiya, kuzatish va atrofdagi dunyoni aks ettirish natijasida ongda rivojlangan bilimlar [tizimi](#) ) qiziqishlarini rivojlantirishdagi o'rnini ham beqiyosdir. (1)

Maktablarda o'quv jarayonini faollashtirish va intinsivlashtirish uchun qo'llaniladigan o'yin faoliyati quyidagi hollarda qo'llashni taqozo etadi:

- konsepsiyani, mavzuni va hatto o'quv fanining bo'limini o'zlashtirish uchun mustaqil texnologiyalar sifatida;

- boshqa texnologiyaning elementlari (ba'zan juda muhimi) sifatida;
- dars yoki darsning bir qismi sifatida (kirish, tushuntirish, mustahkamlash, mashq, nazorat);
- sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirishda alohida texnologiya sifatida.

Umumiy o'yinlardan farqli o'laroq, pedagogik o'yin muhim xususiyatga ega – bunda aniq belgilangan o'quv maqsadi va mos keladigan pedagogik natija, uni asoslash, aniq aniqlash va ta'lim-kognitiv yo'nalish bilan farqlash tavsiflash mumkin. Darslarning o'yin shakli darslarda o'quvchilarni o'rganishga undash va rag'batlantirish vositasi sifatida ishlaydigan o'yin texnikasi va vaziyatlar yordamida yaratiladi.

G.K. Selevko ta'бири bilan aytganda **o'yin usulli** - o'quvchining ta'lim jarayonida faolligi, mustaqilligi va qiziqishini oshirish, o'quv faoliyatini shaxsan ahamiyatli qilish, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonini sezilarli darajada osonlashtirish imkonini beradigan texnologiyalardan biridir. (2)

Darhaqiqat “O'yin” – bu ijtimoiy tajribani qayta tiklash va o'zlashtirishga qaratilgan vaziyatlardagi faoliyat turi bo'lib, unda xatti-harakatlarning o'zini o'zi boshqarishi rivojlanadi va takomillashtiriladi.

O'yin texnologiyalari dars jarayonida qo'llanilganda o'quv jarayoni faollashadi, o'quvchilarning ijodiy va kommunikativ qobiliyatlari rivojlanadi.

O'yin texnologiyasining boshqa ijobiy tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak unda quydagilarni sanab o'tishimiz mumkin bo'ladi:

1. O'quvchlarni nazariy bilimlari mustahkamlanib, mazmunli bo'ladi, ularda tahlil qilish va bashorat qilish qobiliyati shakllanadi. Vazifalarni bajarish, hamkorlik qilish va o'zaro yordam berishda mustaqilliklari ortib boradi;
2. O'yinlar o'quvchilarga o'qituvchini tinglashdan ko'ra, tajribadan o'rganish imkoniyatini beradi va shunchaki kuzatuvchi bo'lishdan ko'ra, qiyin muammolarni mustaqil hal qilishlariga imkon beradi;
3. O'yinlar bilimlarni o'quv vaziyatidan real holatga o'tkazish imkoniyatini yaratadi va hayotiy vaziyatda yo'naltirishni ta'minlaydi;

4. O'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga ularda guruh bo'lib ishlash imkonini beradi;

5. O'quvchi shaxsini rivojlanishda katta rol o'ynab, xotirani mustahkamlaydi;

Bulardan tashqari ya'na quydagilarni ham qo'shishimiz mumkindir:

-fikrlash, fikr yuritish va o'z nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyati;

-guruh faoliyatini tashkil etish, yechimlarni jamoaviy izlash;

-davriy nashrlar, radio, televidenie ma'lumotlaridan foydalanishni o'rgatadi;

-malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish va takomillashtirish;

-olingan bilimlarni yangi sharoitda qo'llashni o'rganish, olingan bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llashni o'rganish;

O'yin texnologiyasin yana bir xususiyati uni darsni turli etaplarida qo'lash mumkinligidir. U darsning boshida, uy vazifalarini tekshirishda yoki o'quvchilar e'tiborini faollashtirishda, o'quv materialini chuqurroq, mazmunli va tezroq o'zlashtirish uchun yangi materialni o'rganishda va dars oxirida o'rganilgan materialni mustahkamlash uchun tashkil etilishi mumkin. Bunda o'qituvchning kasbiy faoliyati katta rol o'ynaydi, chunki o'qituvchi ushbu o'yin shakllarining barchasini dars mavzusiga, o'quvchilarning tayyorgarligiga, yoshiga qarab tanlashi shart.

Men ayrim o'yinlarni darsni qaysi etapida o'tish samarali ekanligi to'g'risida o'z fikrimni bildirib o'tmoqchman. Masalan 7-sinifda "Geografik koordinatalar" mavzusini o'rganayotganda siz koordinatalar yordamida so'zni shifrlashingiz mumkin. O'quvchlar birinchi navbatda qaysi shaharlar berilgan koordinatalarga mos kelishini aniqlashlari kerak, keyin esa berilgan so'zni aniqlashlari kerak bo'ladi. Buni siz darsni mustahkamlash qismida va yuga vazifa sifatida topshiriq qilib berishingiz mumkin bo'ladi.

40<sup>0</sup>38<sup>1</sup> sh.k. va 49<sup>0</sup>89<sup>1</sup> shq. u.     **Baku**

24<sup>0</sup>47<sup>1</sup> sh.k. va 54<sup>0</sup>37<sup>1</sup> shq. u.     **Abu-Dabi**

64<sup>0</sup>14<sup>1</sup> sh.k. va 21<sup>0</sup>09<sup>1</sup> g'. u.     **Reyk'yavik**

5<sup>0</sup>56<sup>1</sup> sh.k. va 02<sup>1</sup> g'.u.     **Akkra**

390 551 sh.k. va 660101 shq. u.	Kattaqo'rg'on
40 <sup>0</sup> 40 <sup>1</sup> sh.k. va 72 <sup>0</sup> 20 <sup>1</sup> shq.u.	Andijon
51 <sup>0</sup> 51 <sup>1</sup> sh.k. va 0 <sup>0</sup> 13 <sup>1</sup> g'.u.	London
12 <sup>0</sup> 04 <sup>1</sup> j.k. va 77 <sup>0</sup> 03 <sup>1</sup> g'.u.	Lima
18 <sup>0</sup> 91 <sup>1</sup> j.k. va 47 <sup>0</sup> 54 <sup>1</sup> shq.u	Antananarivi

(Kalit so'zi BARAKALLA)

Bu topshriqni uyga ham bajarib kelishga berish mumkin. Ular o'zlarining ismlarini, familiyalarini yoki sinfdoshlarini ismini, keyingi darsda taxmin qiladigan boshqa so'zlarni shifrlashlari mumkin.

Kirish darslarda qo'llash mumkin bo'lgan o'yinlardan muammoli savollar o'yini. Bu o'yin o'quvchlarda mustaqil bilish va haqiqatni ochish jarayoniga qiziqishini chuqurlashtiradi.

Muammoli savollarga misollar qilib quydagilarni olish mumkin.

1. Nima uchun isitish quvurlarir pastda va derazalar tepada joylashgan?
2. Nima uchun oq ayiqlar pingvinlarni yemaydilar?
3. Gulfstrimdagi suv harorati +4, u issiq. Kanor oqimida suv harorati +22, lekin sovuq oqim deyiladi. Nega?
4. Yer yuzasining qaysi qismida inson qaysi tamonga yurmasin faqat shimolga qarab yurgan bo'ladi.
5. Nima uchun shmoliy kenglikda joylashgan daryolarning o'ng qirg'oqlari, janubiy kenglikdagi daryolarning chap irmoqlar ko'proq yemiriladi?
6. Kimyo korxonalarini joylashtirishda ekologik omillar nima uchun yetakch hisoblanadi?

Bu savollarga javob izlash orqali o'quvchlar geografiya faninig jamiyatdagi o'rnini ham anglab olishadi.

Pedogok N.V. Sviridovani takidlashicha o'yinni o'rni (pozitsiyalari) quydagicha:

-voqelikni modellashtirishga qaratilgan o'qitish usuli sifatida;

o'quv faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan o'qitish usuli sifatida;

faol o'qitish shakli sifatida (nostandart dars);

ta'lim faoliyatini tashkil etish shakli sifatida (jamoaviy ish turlaridan biri), yangi o'qitish texnologiyasi sifatida.

O'yinga asoslangan ta'lim texnologiyasining maqsadi ijodiy qobiliyatlarni ko'zlangan darajaga yetkazish emas, balki har bir o'quvchining tabiiy sifatlarining namoyon bo'lishiga yordam berishdir deb aytib o'tadi pedagog. (3)

“O'yinga asoslangan ta'lim texnologiyasining maqsadi ijodiy qobiliyatlarni ko'zlangan darajaga yetkazish emas, balki har bir o'quvchining tabiiy sifatlarining namoyon bo'lishiga yordam berishdir. O'yin orqali men o'quvchilarning shaxsiyatining ijodiy salohiyatini aniqlayman, rivojlantiraman va mustahkamlayman, chunki o'yin rivojlanishga yordam beradi, hayotiy tajribani boyitadi va haqiqiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat uchun "tuproq" ni tayyorlaydi. O'yin inson hayoti va faoliyati normalarini, o'quvchilar shaxsining intellektual, axloqiy va hissiy rivojlanishini aks ettiradi. O'yinlar darsning har qanday bosqichi yoki uning turi uchun universaldir.” deb takidlab o'tgan edi N.V. Sviridova. Yuqorida takidlab o'tganimdek o'yin texnologiyasini darsni turli etaplarida qo'lay olamiz bu jihatdan u boshq texnologiyalardan ancha ustunlik qiladi. O'qituvchi tomonidan darsning turli bosqichlarida o'tkaziladigan o'yinlar turli maqsadlarga ega. Darsning boshida o'yin bolalarni tashkil qilish va jalb qilishga, ularning faolligini rag'batlantirishga qaratilgan;

darsning o'rtasida - mavzuni o'zlashtirish;

dars oxirida - qidiruv tabiati uchun.

O'yinlar qayerda o'tkazilishiga qarab, ular sinfda yoki darsdan tashqari bo'lishi mumkin.

Didaktik maqsadlarda - yangi materialni o'rganish, bilim va ko'nikmalarni tekshirish, mustahkamlash va umumlashtirishga qaratilgan o'yinlar ham bo'ladi.

Turli mavzudagi geografik o'yinlarni ishlab chiqish quyidagi mezonlarga javob berishi kerak deb o'ylaymiz:

1. O'yin bir darsga mo'ljallangan bo'lishi kerak (40-45 daqiqa).



2. O'yinning borishini o'quvchilar tushunishlari qiyin bo'lmasligi kerak.
3. O'yin uchun jihozlar osongina o'zgartirilishi kerak.
4. O'yin eskirmasligi, ya'ni yangilanib turishi kerak.
5. O'yin ommaviy bo'lib, barcha o'quvchilarni qamrab olishi kerak.
6. O'yin, unga qiziqishni saqlab qolish uchun harakatli (dinamik) bo'lishi kerak.
7. O'yin o'quvchlarni zeriktirmasligi va darsni qaysi etapida qo'lanilayotganiga qarab muddati anuq belgilangan bo'lish kerak.
8. O'yin shartlari o'quvchlarga tanish bo'lishi kerak.

O'qituvchiga o'yin natijalariga ko'ra baho qo'yish oson bo'lishi kerak va o'quvchilar darsning yakuniy bahosi qanday bo'lganini tushunishlari kerak. Muvaffaqiyatli o'yin uchun o'quvchilar o'yin asoslanadigan materialni yetarlicha bilishlari kerak. Aks holda, ular shunchaki unda qatnasha olmaydilar yoki faol ishtirok etishdan qochib passiv faoliyatga kirishishga harakat qilishadi.

O'yinlarni o'tkazishda biz nazorat shakildagi va tijorat shakildagi toifalaridan foydalanishimiz mumkin bo'ladi. O'yinlar qiziqarli bo'lishi uchun, o'quvchlarni faolligini oshirish uchun iloji boricha hali hal etilmagan muammolarni olishni tavsiya etiladi.

O'yinlarining modifikatsiyalari:

Immitatsion o'yinlar - Bunday o'yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarnig biror faoliyati (ish bitirish majlislari, rejani muhokama qilish, suhbatlar o'tkazish va b;), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi mumkin. Senariyda bo'nday o'ynash to'la tuzilmasi yozib chiqilgan va immitatsiya qilinadigan ob'ektlar va jarayonlar belgilanadi.

Operatsion o'yinlar - Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqea xodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o'yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi  
Rol ijro etish o'yinlari - Unda konkret shaxsning hulqi, hatti-harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi. (4)

Yuqorida berilgan o'yin modifikatsiyalaridan ta'limning quyi pag'onalarida foydalanish ijobiy natija berib kelmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki o'yin tahlili amalga oshrib o'qituvchi o'z oquvchlarining qiziqishlarini, ma'lumotlarni eslab qolish darajasini, o'yinni o'quvchi shaxsiga ta'sir darajasini va boshqa imkoniyatlarni aniqlab olishi mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga nazariy bilimlarni mustahkamlanib, mazmunini to'ldiradi, geografik jarayon va hodisalarni tahlil qilish, bashorat qilish qobiliyati rivojlantiradi, hamkorlik qilish va o'zaro yordam ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga ularda mustaqillikni oshiradi.

O'yin texnologiyasini avfzal tamonlaridan ya'na biri o'quvchi faqat tinglovchi, kuzatuvchi sifatida ishtirok etmaydi balkim vujudga kelgan muammoni yechishda o'z aktivligini ko'rsata olish imkonini ham beradi, hamda olgan bilimlarini real hayotga tadbiiq qilishlariga ham sharoit yaratib beradi.

O'quvchilardagi muloqot ko'nikmalarini rivojlanishda, muammoni guruh shaklda o'zlashtirishga imkon beradi.

Shuning uchun o'qituvchilar tomonidan maktablarda, ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishning o'yinli texnologiyalaridan unumli foydalanish talab etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Зиёмухаммадов Б., Абдуллаева Ш., Илфор педагогик технологиялар. - Т.: «Абу Али Ибн Сино», 2001.
2. Селевко Г.К. «Энциклопедия образовательных технологий» М. Народное образование 1998 г.
3. Свиридова Н.В. Игровые формы в процессе обучения географии. Чекалинск 2019г
4. Во'riyeva Aziza Ne'matovna Ta'lim jarayonida o'yin usulidan foydalanishning afzalliklari

- 5.Oybek, U., & Mansurovich, A. S. (2024). ZAMONAVIY JAMIYATNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI-SABABLARI VA OQIBATLARI. *Yangi asr innovatsiyalari jurnali* , 50 (2), 80-83.
6. Umirzoqov, O. (2024). SUV HAVZALARI TA'SIR ETISH XUDUDLARI LAYFAZI VA EKOLOGIK SHARTLARINI O'RGANISH DARAJASI. *Iqtisodiyot va jamiyat* , (4-1 (119)), 642-646.